# Toshkent shahrida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

2018 yil yanvar-martida 3,1 mingta yangi kichik korhona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3,7 % ko'p demakdir.

Eng ko'p kichik korhona va mikrofirmalar sanoat tarmog'ida (21 %), savdo sohasida (26 %), qurilishda tarmog'ida (12 %), yashash va ovqatlanishda (8 %), tashish va saqlashda (5 %) tashkil etilgan.

## 2018 yil yanvar–mart oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi



2018 yilning yanvar–martida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub‘yektlari tomonidan:

– sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 4 770,5 mlrd. so‘mni (jami sanoat ishlab chiqarishining 67,1 foizi) yoki 2017 yilning yanvar–martiga nisbatan o‘sish sur‘ati 105,0 foizni tashkil etdi;



– 1873,5 mlrd. so‘mlik investitsiyalar (umumiy investitsiyalar hajmining 50,2 foizi) o‘zlashtirildi yoki 2017 yilning yanvar–martiga nisbatan 121,1 foizni tashkil etdi;



– 1 123,9 mlrd. so‘mlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiy hajmining 68,9 foizi) bajarildi yoki 2017 yilning yanvar–martiga nisbatan o‘sish sur‘ati 101,4 foizni tashkil etdi;



– 5 137,6 mlrd. so‘mlik xizmatlar ko‘rsatilib (jami xizmatlar hajmining 50,6 foizi), 2017 yilning yanvar–martiga nisbatan 102,0 foizni tashkil etdi;



– chakana savdo tovar aylanmasi umumiy hajmining 74,8 foizi yoki 4 427,7 mlrd. so‘mi (o‘sish sur‘ati 98,2 foiz) shakllantirildi;

– 161,4 mln. AQSh dollari (umumiy eksport hajmining 23,7 foizi) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksporti amalga oshirildi, bu esa 2017 yilga nisbatan 47,4 mln. AQSh dollari yoki 141,6 foizga ko’p;




– avtomobil transporti yuk aylanmasining 7,7 foizga (jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 65,9 foizi);

– yo‘lovchi aylanmasining esa 2,7 foizga (umumiy yo‘lovchi aylanmasining 75,3 foizi) ko‘payishi ta‘minlandi;

**Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi**
**(umumiy hajmga nisbatan foizda)**



Hududlar bo‘yicha sanoat tarmog‘ida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning eng ko‘p ulushini Shayxontohur (93,7 foiz), Yashnobod tumani (90,1 foiz), Mirzo- Ulug’bek tumani (86,7 foiz) va Yakkasaroy tumanlari tashkil etdi.

## 2018 yil yanvar-martida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi va sur’ati




## 2018 yil yanvar-martida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana tovar aylanmasi hajmi va sur’ati



Hududlar bo‘yicha ko’proq chakana tovar aylanmasi hajmi Uchtepa tumani (711,3 mlrd.so’m), Bektemir (700,6 mlrd.so’m), Yunusobod (582,5 mlrd.so’m) va Shayhontohur (565,8 mlrd.so’m) tumanlari hissasiga to’g’ri keladi.

## 2018 yil yanvar-martida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va sur’ati




Hududlar bo‘yicha ko’proq xizmatlar hajmi Shayhontohur tumani (676,9 mlrd.so’m), Yunusobod (661,2 mlrd.so’m) va Chilonzor (578,0 mlrd.so’m) tumanlari hissasiga to’g’ri keladi.

Xizmatlar sohasining yuqori ulushini Bektemir (96,7 foiz), Uchtepa (86,2 foiz) va Olmazor (74,1foiz) tumanlari tashkil qiladi.

Qurilishda Sergeli (90,0 foiz), Yashnobod (97,0 foiz) va Olmazor (86,8 foiz) tumanlari tashkil qiladi.

2018 yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlikning YaIMdagi ulushi 46,1 % ni tashkil qildi (2017 yilning yanvar-martida 47,4 %). YaIM tarkibida pasayishi yirik korxonalar ulushi oshishi bilan tushuntiriladi.

## 2018 yil yanvar– martda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning hududlar bo‘yicha ulushi (foizda)

| | Sanoat | Xizmatlar | Qurilish |
|---|---|---|---|
| **Toshkent shahri** | **67,1** | **50,6** | **68,9** |
| *tumanlar:* | | | |
| Bektemir | 28,8 | 96,7 | 79,0 |
| Mirzo-Ulug’bek | 86,7 | 61,5 | 61,3 |
| Mirobod | 78,6 | 30,6 | 60,4 |
| Olmazor | 80,1 | 74,1 | 86,8 |
| Sergeli | 50,4 | 47,6 | 90,0 |
| Uchtepa | 63,0 | 86,2 | 75,2 |
| Chilonzor | 63,8 | 36,9 | 46,3 |
| Shayxontohur | 93,7 | 58,6 | 51,3 |
| Yunusobod | 43,0 | 34,6 | 80,0 |
| Yakkasaroy | 85,0 | 63,2 | 84,0 |
| Yashnobod | 90,1 | 36,9 | 89,5 |

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha 2018 yil I- chorak yakunlariga ko‘ra, yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarda tanlanma kuzatuvlar o‘tkazildi. Unda 20 dan ortiq respondentlar ishtirok etdi.

Kuzatuv ma‘lumlotlari tahlili, respondentlarning 13,5 % iqtisodiy vaziyatni – qulay va 76,2 % esa qoniqarli deb hisoblashini, mos ravishda qurilishda – 10,7 % va 71,4 %, savdo sohasida – 14,5 % va 77,4 %, xizmatlar sohasida – 11,4 % va 79,0 %,qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligida – 0 % va 100,0 %, sanoatda – 18,6 % va 69,5 % ni tashkil qilganini ko‘rsatdi.

Joriy iqtisodiy vaziyatga pessimistik ruhda yondashganlar qurilishda – 17,9 %, savdoda – 8,1 %, qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligida – 0,0 %, xizmatlarda – 9,5 % sanoatda – 11,9 %, ni tashkil qildi.

## Iqtisodiy vaziyatni baholash
## 2018 yil I–chorak uchun




**Iqtisodiy vaziyat yaxshilanishi** yaqin 3 oyda 54,2 foiz sanoat korxonalari, 46,7 foiz – savdo 41,0 foiz – xizmatlar, 33,3 foiz – qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida va 25,0 foiz qurilish tarmog'ida kutilmoqda.

## Iqtisodiy vaziyatdagi o'zgarishlar istiqbolini yaqin 3 oyda baholanishi



Tahlil natijalaridan kelib chiqib, yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarga biznes muhitini yahshilash uchun ko’rilayotgan chora tadbirlar natijasida respondentlar yaqin istiqbolda umumiy iqtisodiy vaziyatning yaxshilanishini ijobiy baholayotganligini xulosa qilish mumkin.